

## TARJIMASHUNOSLIKNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

### MODERN TRENDS IN TRANSLATION STUDIES

### СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ПЕРЕВОДОВЕДЕНИИ

**Omonturdiyeva Maftuna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik nazariyasi va amaliyoti  
fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarjimashunoslikning zamonaviy tendensiyalari IMRAD strukturasi asosida tahlil qilinadi. Kirish qismida global kommunikatsiya, raqamlashtirish va madaniy xilma-xillik sharoitida tarjima amaliyoti va nazariyasining bir-biriga ta'siriga oid dolzarblik asoslanadi va tahlillar asosida ko'rib chiqiladi. Materiallar va metodlar bo'limida fanlararo yondashuv – tizim va norma nazariyalari, funksionalizm, kognitiv-sotsiologik yondashuvlar, korpusga asoslangan tahlil va raqamli kompetensiyalar bo'yicha konseptual-analitik ko'rib chiqish uslublari bayon etiladi. Natijalar bo'limida olti yo'nalishdagi (deskriptiv-polisistema, funksional-maqсадli, etik va ko'rinish, raqamli va neyronlashgan muhit, multimodal va audiovizual tarjima, ta'lim va kompetensiya) asosiy qiyofalar ajratib beriladi. Muhokama qismida ushbu tamoyillarning milliy akademik-industrial muhit uchun amaliy implikatsiyalari, jumladan, korpus resurslari, post-redaktura jarayonlari, sifat mezonlari va integratsiyalangan kompetensiya modellari yuzasidan tavsiyalar ilgari suriladi. Xulosa bo'limida esa tarjimashunoslikning yangi paradigmalari doirasida ilmiy kun tartibi, metodologik uyg'unlashuv va ehtiyotkorlik bilan tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish zarurati yoritiladi

**Kalit so'zlar:** tarjimashunoslik, polisistema, funksionalizm, dinamik ekvivalentlik, ko'rinish (vidimost), neyron mashina tarjimasi, korpus, post-redaktura, audiovizual tarjima, kompetensiya.

**Аннотация.** Статья рассматривает современные тенденции переводоведения в формате IMRAD. Введение обосновывает актуальность темы в контексте глобальной коммуникации, цифровой трансформации и культурного разнообразия. В разделе «Материалы и методы» описан междисциплинарный подход: системные и нормативные теории, функционализм, когнитивно-социологические подходы, корпусный анализ и цифровые компетенции. В «Результатах» выделены шесть направлений: дескриптивно-полисистемное, функционально-целевое, этика и видимость, цифровая и нейросетевая среда, мультимодальный и аудиовизуальный перевод, образование и компетентностная модель. В «Обсуждении» предложены практические импликации для национального контекста: корпусные ресурсы, пост-редактирование, критерии качества и интегрированные компетенции. В «Заключении» намечается научная повестка и необходимость методологической интеграции. Приведены авторские комментарии к отдельным цитатам; число цитат и ссылок не превышает десяти.

**Ключевые слова:** переводоведение, полисистема, функционализм, динамическая эквивалентность, видимость переводчика, нейронный машинный перевод, корпус, пост-редактирование, аудиовизуальный перевод, компетенции.

**Abstract.** This article examines contemporary trends in Translation Studies following the IMRAD structure. The Introduction motivates the topic's relevance amid global communication, digital transformation, and cultural diversity. Materials and Methods describe an interdisciplinary approach drawing on system and norm theories, functionalism, cognitive-sociological perspectives, corpus-based analysis, and digital competencies. Results identify six key directions: descriptive-polysystemic, functional and purpose-driven, ethics and visibility, digital and neural environments, multimodality and audiovisual translation, and competence-based education. The Discussion outlines practical implications for the national context, including corpus resources, post-editing workflows, quality criteria, and integrated competence models. The Conclusion proposes a research agenda and the need for methodological integration. Select quotations include brief authorial commentary; the combined number of quotes and references does not exceed ten.

**Keywords:** translation studies, polysystem, functionalism, dynamic equivalence, translator visibility, neural machine translation, corpus, post-editing, audiovisual translation, competences.

Tarjimashunoslik sohasi so'nggi qirq yillik davr ichida lingvistik markazlashgan modellardan keng ma'nodagi fanlararo o'tishlarni boshidan kechirdi. Hozirda tarjima nafaqat xalqaro tillar orasida aylanish emas, balki ijtimoiy amaliyot, ma'no yaratish jarayoni, multimodal media mahsulotlarini moslashtirish va raqamli ekosistema tarkibiy elementi sifatida ham o'rganilmoqda. Global xabardorlik va raqamlashtirish sharoitida tarjimon rolining qayta qiyofalanishi, jumladan, lokalizatsiya, terminografik qo'llanmalar tuzish, post-redaktura va ilmiy ma'lumotlar etikasi kabi masalalarni ham o'z ichiga olgan holda dolzarbga aylandi. Shunga mos ravishda, nazariy markazlar ham o'zgardi: dinamik ekvivalentlik, me'yorlar va polisistema, funksiya va maqsad (skopos), ko'rinish va etika, korpus va neyronlashgan muhit, audiovizual va multimodal tarjima, kompetensiya va ta'lim. Ushbu maqola aynan shu izchillikni IMRAD tartibida ochib beradi hamda zamonaviy tendensiyalarning ilmiy-amaliy implikasiyalarini milliy tarjima makoni uchun tahlil qiladi. Va bu xulosalarga ilmiy tarzda javoblar topadi.

### **Materiallar va metodlar**

Tadqiqot konseptual-analitik va sintezlovchi sharh xarakteriga ega hisoblanadi. Asosiy materiallar quyidagi yo'nalishlar doirasidagi ilmiy ishlardan tanlab olindi. Bu yo'nalishlar orqali yanada bu sohalarning ichiga chuqurroq kirishga va uni ilmiy jihatdan yaxshiroq o'rganishga imkon bo'ladi, bu quyidagi 6ta yo'nalishlardir:

1. dinamik ekvivalentlik va funksionalizm;
2. deskriptiv tarjimashunoslik, me'yorlar va polisistema;
3. tarjimon etikasi va ko'rinishi;
4. korpuslar, avtomatlashtirilgan vositalar va neyron mashina tarjimasini;
5. multimodal va audiovizual tarjima;

#### 6. kompetensiya va tarjimonlar tayyorlash.

Tadqiqotda fundamental monografiyalari, har xil turdagi o'quv qurollari, qo'llanmalar va kursbuklardan foydalanib jarayonlar amalga oshiriladi. Qiyosiy tahlil orqali bazaviy tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar, mavzuga nisbatan terminlarning mosligi va amaliyotda qo'llanilish imkoniyatlari ham keltirib beriladi. Shuningdek, muallifning mahalliy tarjima amaliyotiga oid kuzatuvlari va ayrim misollar ilmiy xulosalarni tushuntirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida asosiy tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar, terminologik uyg'unlik va amaliyotga tatbiq imkoniyatlari aniqlashtirildi. Bu orqali tarjimon yoki o'rganuvchi shaxsga tushunilishga yordam bo'ladi. Illyustrativ misollar sifatida subtitrlash, reklama tarjimasi va texnik matnlarni post-redaktura qilishga oid bir qator muallif kuzatuvlari ham keltirib o'tiladi.

#### **Natijalar:**

##### 1. Deskriptiv va polisistema yondashuvining amalda qo'llanilishi.

Tarjima faoliyati ideal me'yorlar emas, balki real amaliy normalar asosida boshqarilishi e'tirof etildi [3]. Bu yondashuv tarjimoni ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qilishga imkon beradi. Hamda tarjima jarayonini yana bir karra osonlashtiradi.

##### 2. Funksionalizm va maqsad (skopos) paradigmasi tushunchalari.

Funksionalizm va skopos yondashuvi tarjimada matn manbasiga qat'iy bog'lanilishiga ko'ra, tinglovchi auditoriyaning tarjimaga bo'lgan ehtiyojini ustun ko'radi. Tarjima qarorlari auditoriya ehtiyojlari, janr va kommunikativ maqsadga mos ravishda qabul qilinadi [7].

##### 3. Tarjimon ko'rinishi va etikasi.

Tarjimonlarning ko'rinmasligi haqida tendensiya ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan, bu g'oya tashqi tomon bilan aloqani yashirish tamoyilini anglatadi va tarjimonning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Iqtibos: "Tarjimonning ko'rinmasligi" muosir muhokamalarda ko'p nazorat qilingan g'oyalardan biridir [2].

Tarjimonning mutlaq "ko'rinmasligi" doimo samarali emas; ayrim holatlarda ochiq professional pozitsiya zarur [2].

##### 4. Raqamli muhit va neyron mashina tarjimasi.

Post-redaktura alohida kasbiy kompetensiya sifatida shakllandi. Raqamli vositalar ekvivalentlik tushunchasini ko'p o'lchovli mezonga aylantirdi [1,9].

##### 5. Multimodal va audiovizual tarjima.

Til, tasvir va ovoz uyg'unligi tarjima strategiyasining ajralmas qismiga aylandi [4,5].

##### 6. Kompetensiya va ta'lim.

Zamonaviy tarjimon modeli lingvistik, texnologik va etik kompetensiyalar integratsiyasiga asoslanadi [5,8].

#### **Muhokama**

Natijalar milliy tarjima amaliyoti uchun bir qator muhim xulosalarni ko'rsatadi: korpus infratuzilmasini rivojlantirish, post-redaktura standartlarini ishlab chiqish, sifat mezonlarini aniqlashtirish va ta'limda loyiha-asosli yondashuvni kuchaytirish zarur. Funksionalizm va skopos tamoyillari tarjima strategiyasini aniq maqsad asosida qurishga xizmat qiladi.

### **Cheklovlar**

Tadqiqot nazariy-sintez xarakterga ega bo'lib, keng miqyosli empirik ma'lumotlarga tayangan emas. Kelgusida korpusga asoslangan statistik va eksperimental tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

### **Xulosa**

Zamonaviy tarjimashunoslik fanlararo paradigmalarga tayangan holda rivojlanmoqda. Polisistema, funksionalizm, etika, raqamli texnologiyalar va kompetensiya yondashuvlari tarjima nazariyasi va amaliyotini yaqinlashtiradi. Milliy miqyosda korpuslar yaratish, sifat standartlarini belgilash va integratsiyalangan ta'lim modeli ustuvor vazifa hisoblanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Nida, E. A.; Taber, C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.
2. Venuti, L. The Translator's Invisibility. London: Routledge, 1995.
3. Toury, G. Descriptive Translation Studies and Beyond. Amsterdam: John Benjamins, 1995.
4. Bassnett, S. Translation Studies. London: Routledge, 2002.
5. Baker, M. In Other Words. London: Routledge, 2011.
6. Pym, A. Exploring Translation Theories. London: Routledge, 2014.
7. Nord, C. Text Analysis in Translation. Amsterdam: Rodopi, 1997.
8. Even-Zohar, I. Polysystem Studies. Poetics Today, 1990.
9. O'Hagan, M.; Ashworth, D. Translation-Mediated Communication in a Digital World. Multilingual Matters, 2002.